

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUV FAOLIYATIDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Sapayeva Laylo Norbayevna

Buxoro viloyati Osiyo Xalqaro Universiteti 70110501- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta'lim) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbari: R.M.Yoqubovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10416932>

Abstract: *This article provides information on the use of information technologies in primary education.*

Key words: *Education and training processes, informatization processes require rapid improvement of the education system, determination of educational goals that take into account state, social and personal needs and interests.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan ma‘lumotlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Ta‘lim va tarbiya jarayonlari, axborotlashtirish jarayonlari ta‘lim tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi ta‘lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda.*

KIRISH (Introduction)

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. XXI asrda jahon miqyosida ta‘lim barqaror taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta‘lim konsepsiyasida sifatli ta‘lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta‘limning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta‘limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida o‘qitish, o‘quvchilarda integratsiyalashgan ta‘limni rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu esa ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o‘quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pchilik maktablarda innovatsion faoliyat u yoki bu ko‘rinishda amalga oshirilmoqda: maktablarni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda, tajriba ishlari olib borilmoqda, yangi ta‘lim dasturlari va texnologiyalari o‘zlashtirilmoqda.

Vaqt joyida turmaydi va hozirda davr talabi bilan an‘anaviy suhbatlar, yodlashlar, turli xildagi nasihatlar o‘rniga ta‘limning noan‘anaviy shakllari: birlashtirilgan darslar, kuzatuv darslari, muammoli vaziyatlarni qo‘yish va shu kabilar kirib keldi. Mana shunday darslar

bolalarga yoqadi, idrok etishga ularda qiziqish uygʻotadi, ularga koʻplab yangiliklar beradi, oʻquvchilarda katta emotsional kuch mavjud.

Inson nutqi — bu uning intellekt va madaniyati koʻrsatkichidir. Nutq qanchalik aniq boʻlsa, fikr obrazli ifoda etilsa, inson shaxs sifatida shunchalik ahamiyatli va jamiyat uchun u shunchalik qimmatga ega. Zamonaviy hayot oʻquvchi oldiga: tilni erkin egallash, turli vaziyatlarda turli insonlar bilan munosabatda boʻlishni bilish, shu bilan bir vaqtda, oʻzini erkin, ishonchli his qilish kabi yangi maqsadlarni qoʻyadi. Shu sababli taʼlimning kommunikativ texnologiyasi bizning davrimizda innovatsion hisoblanadi.

Taʼlim va tarbiya jarayonlari oʻz-oʻzidan insonni rivojlantirmaydi, balki ular faoliyatli shaklga ega boʻlganida rivojlantira oladi. Oʻquvchi rivojlanishi uchun uning faoliyatini tashkil etish zarur. Oʻquv materialini passiv idrok etishda rivojlanish sodir boʻlmaydi. Misol uchun, bola kitobni qanchalik koʻp varaqlamasin, oʻzi harflarni eslab qolmasa, ulardan soʻz tuzishni oʻrgana olmaydi — unda hech qanday oʻqish koʻnikmasi shakllanmaydi. Bolaning aynan oʻz harakatlari kelajakda uning qobiliyati shakllanishining asosi boʻlib qolishi mumkin.

Demak, taʼlimning vazifasi bolani harakatlarga chorlovchi sharoitlarni tashkil etishdan iborat boʻladi. Boshqacha aytganda, oʻqituvchilar har bir oʻquvchida turli sharoitlarda oʻz yoʻlini topa olishiga imkon beruvchi harakatlar individual vositalari va usullarini shakllantirishga yordam beruvchi maxsus oʻquv sharoitlarini yaratishlari zarur. Boshlangʻich sinflar oʻqituvchilari mana shunday oʻquv vaziyatlari majmuini yaratish ustida ishlamoqdalar. Bu holat koʻzlangan natijalarga erishish texnologiyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Kichik yoshdagi oʻquvchilarning diqqatlari mustahkam emas, ular koʻpincha diqqatlarini bir faoliyat turidan ikkinchisiga qaratishni bilmaydilar. Biroq oʻquvchining oʻziga doskada har qanday obyekt, geometrik shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini oʻzgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan, matematika darsida kompyuter vositalari, interfaol doskadan foydalanilishi bilan bolalarning qiziqishlari ortishi kuzatiladi va shu bilan birga, darsning jadalligi oshadi. Barcha oʻquvchilar dars jarayoniga jalb qilinadilar. Material hajmining koʻpligi bolalarni qiynamaydi, balki faoliyat oʻyin shakli metodikasi boʻyicha faol oʻqishga imkon beradi. Bu juda muhim omil, chunki olti-toʻqqiz yoshli bolaning faol faoliyat turi oʻyin hisoblanadi. Interfaol doska — matematika faniga oʻqitish jarayonini koʻrgazmali, yorqin, chaqqon qiluvchi juda qulay uskunadir. Taʼlim jarayonini jadallashtirish boshlangʻich maktab oʻquvchilari uchun muhim hisoblanadi.

Uskunalar bilan jihozlangan kabinetda oʻquvchilar va oʻqituvchi uchun ham ishlash qiziqarli. Hozirgi zamonaviy jamiyatda sodir boʻlayotgan axborotlashtirish jarayonlari taʼlim tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi taʼlim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu sababli yangi taʼlim standartlarining rivojlantiruvchi imkoniyatlarini taʼminlash ustivor yoʻnalish boʻlib qolmoqda. Yangi ijtimoiy talablar oʻquvchilarni umummadaniy, shaxsiy va idroklari rivojlanishi kabi taʼlim maqsadlarini belgilab bermoqda. Oʻquvchilarning faqatgina fanlar aniq bilim va malakalarini oʻzlashtiribgina qolmay, balki «oʻqishga oʻrgatish» malakasini

ta'minlovchi «universal o'quv harakatlari» to'plamini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifasi hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) — foydalanuvchi manfaatlari yo'lida axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to'plamidan iboratdir.

Bir qator olimlarning ta'kidlashicha ta'lim sohasida qo'llaniladigan AKT vositalaridan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak: o'quvchilarning fikrlashlari tizimlilikini ta'minlash va rivojlantirish; bilim olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashda o'quvchining idrok etish faoliyati barcha turlarini qo'llab-quvvatlash; ta'lim jarayoni yaxlitligini saqlab qolgan holda o'quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.